XALQ DEPUTATLARI ANGREN SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 12 - aprel VI-59-25-10-148-K/23 Angren shahar hokimligi

Angren shahar “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi nomsiz ko‘chaga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Angren shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha shahar hokimining maslahatchisi N.Nazarovaning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2023-yil 6-fevraldagi 15-00260-sonli xulosasi asosida Angren shahridagi “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi nomsiz ko‘chaga nom berish taklifi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar Statistika bo‘limi (Sh.Abdukarimov), Kadastr Agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi Angren shahar bo‘limi (Sh.Boymuritov), Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (J.Xasanov) hamda tegishli mutasaddi davlat organlari rahbarlari amaldagi tartibda nom berilgan ko‘chani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Angren shahar “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (X.Abdullayeva), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi bilan hamkorlikda nom berilgan ko‘chaga ko‘cha nomi qayd etilgan ko‘rsatgichlar o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining ijtimoiy-madaniy rivojlanish masalalari doimiy komissiyasiga, shuningdek, qaror ijrosini ta’minlash Angren shahar hokimligi huzuridagi Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunni amalga oshirish va toponimik obyektlarga nom berish shahar komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.A.Rayimov**

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2023 yil 12 apreldagi
VI-59-25-10-148-K/23-son qaroriga
1-ilova

“Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunni amalga oshirish va toponimik obyektlarga nom berish Angren shahar komissiyasining nomsiz ko‘chaga nom berish bo‘yicha taklifi

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Shahar komissiya tomonidan berilgan taklif	Nomi muvofiq deb topildi
1	2	3	4	5	6
Ko‘cha					
1	Ko‘cha	“Do‘stlik” MFY	Nomsiz ko‘cha	1. Yangi yo’l 2. Munis	**Yangiyo‘l** ko‘chasi